
RISHTON TUMANIDA BARPO ETILAYOTGAN KULOLCHILIK MARKAZI, MEHMONXONA VA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH MAJMUASI QURILISH ISHLARI YAKUNLANMOQDA

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, kichik sanoat zonalaridagi investitsiya loyihalarining ijrosi bilan tanishish maqsadida viloyat sektorlari rahbarlari bilan birga bugun Rishton tumanida bo'ldi.

Viloyat rahbari o'rganishlar jarayonida tadbirkor Islomjon Orifjonov rahbarligidagi "Chinor plyus-2020" korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan Kulolchilik markazi, mehmonxona va maishiy xizmat ko'rsatish loyihasi qurilishini ko'zdan kechirdi.

Oqer MFY hududida joylashgan, qurilish-pardoqlash ishlari deyarli yakunlanayotgan ushbu majmuaning loyiha qiymati 35 milliard so'mni tashkil etib, shundan 12 milliard so'm tadbirkorning o'z mablag'i hisobiga to'g'ri keladi. Kelgusi oylarda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilayotgan turistik majmuada mehmonxona, sauna, yozgi va qishki basseyn va boshqa xizmat ko'rsatish shaxobchalari joylashgan bo'lib, Rishton turistik salohiyatining yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Ushbu majmuaga yondosh hududda barpo etilayotgan Kulolchilik markazida ham qurilish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Viloyat hokimi majmuaga gaz, elektr va suv tarmoqlarini tortish va ulab berish ishlarini yakunlash bo'yicha "Farg'ona HETK", "Hududgaz Farg'ona" va "Farg'ona suv ta'minoti" rahbarlariga aniq muddatli vazifalar yukladi.

2022-09-17 05:49:05